

KITOB-ERTAMIZ KELAJAGI, POYDEVORI

Ozoda Aminova

Termiz davlat universiteti

4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada kitobning kelgusi hayotimizda tutgan o'rne haqida mushohada qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Inson, kelajak, kitob, tarbiya, prezident, jamiyat, yoshlar.*

Kitob bizning kelgusi hayotimizni gavdalantirib beradigan ilm xazinasidir.

Bizning hayotimizda kitobning alohida o'rne bor. Bundagi xazinalar vatanga bo'lgan muhabbatimizni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tuyg'ularimizni yuksaltirmasdan qo'ymaydi. Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan, avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir.

Kitob umr yo'llarini yorituvchi nur inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st.

Insonning ma'naviy ka'molotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o'z o'rnini topishga jamiyatning chinakam azosiga aylanishida dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero buyuk bobokolonimiz, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy aytganlaridek kitob-beminnat ustoz, bilim va manaviy yuksalishiga erishishning eng asosiy manbaidir.

Kitob qalblarni yorituvchi nur tafakkurni boyituvchi xazina kamolot cho'qqisi ma'naviy komillikka yetaklovchi hamrohdur. Kitob insonning erkin fikrlashi, dunyoqarashining kengayishi manaviyatining shakllanishiga asosiy o'rinni egallaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, eng muhimi farzanlarimizda yoshlik chog'idan boshlab kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish murakkab hayotiy vaziyatlardan to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirishimiz buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor. Aholi va yoshlarni kutubxonalariga jalb qilish maqsadida 5 ta tashabbusning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirgan. Insonning eng yaxshi do'sti va maslahatchisidir. "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham millatning ham kelajagi yo'q, deya prezidentimiz bekorga aytmaganlar.

Darhaqiqat, bugun bitta o'rgangan narsang ertaga o'zingga ming chandon foydasi bor. Kitob o'qishni va o'qitishni biz oiladan ota-onadan boshlashga e'tibor beradigan bo'lsak kattalar yoshlarga o'rnak bo'ladigan bo'lsak ertangi kunimiz yoshlarni kitobga, ijodga, shuningdek fikrlashi va dunyoqarashi kengayib yuksalishda davom etishida katta yordam ko'rsatgan bo'lamiz.

Jamiyat taraqqiyotida hozirgi yoshlarimizga juda katta keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqdaki, biz bulardan oqilona foydalanishimiz darkor. Bugun 1 varoq o'qigan

kitobingiz ertaga asta-sekinlik bilan tugaydi, lekin undagi bor ilmlar xotirada mustahkamlanib, ertangi hayotga asqotadi, albatta. Ichi bir qancha xazinadan iborat desak adashmaymiz. Kichik yoshlarga ham o'zimiz o'qitib, voqealar rivojini gapirib beradigan bo'lsak, ular yana bizdan shu holatni qayta takrorlashimizni so'raydi va kitobga bo'lgan qiziqishi yanada yulsala boradi. Bundan ko'zlangan maqsad kitobxonlar safining kengayib, kitobga bo'lgan talablari yanada orttib borishidir. Kitob - ertamiz kelajagi, poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https;www.standart.uz>.
2. Boltaboyeva U., Rahmonova N
3. Murodjon Aminov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil